

SOTSIOLINGVISTIKANING TILSHUNOSLIKKA OID FAN SIFATIDAGI ZARURIYATI

Abdurazzoqov Yusufjon Usmoilovich
 FarDU, mustaqil tadqiqotchi
yusuffer@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilning umumi ijtimoiy tabiatini tilshunoslik tadqiqotlarining asosiy nazariy farazi sifatida tan olish umumi lingvistik an'analing farq qiluvchi eng muhim jihatlaridan biriligi, ijtimoiy lingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida umumi tilshunoslikdan yaqindagina ajralib chiqganligi va sotsiolingvistikaaning alohida tilshunoslikka oid fan sifatidagi zaruriyati haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *til, nutq, tilning umumi ijtimoiy tabiati, tilshunoslik tadqiqotlari, asosiy nazariy farazlar, umumi lingvistik, an'ana, farq qiluvchi, eng muhim, jihatlar, ijtimoiy lingvistika, tilshunoslik, mustaqil, soha, umumi tilshunoslik, sotsiolingvistika, fan, zaruriyat.*

ANNOTATION

In this article, the recognition of the general social nature of language as the main theoretical hypothesis of linguistic research is one of the most important distinguishing aspects of the general linguistic tradition, the fact that social linguistics as an independent field of linguistics has recently separated from general linguistics, and the necessity of sociolinguistics as a special linguistic science.

Key words: *language, discourse, general social nature of language, linguistic studies, main theoretical assumptions, general linguistics, tradition, distinctive, most important, aspects, social linguistics, linguistics, independent, field, general linguistics, sociolinguistics, science, necessity.*

KIRISH

Tilning umumi ijtimoiy tabiatini tilshunoslik tadqiqotlarining asosiy nazariy farazi sifatida tan olish umumi lingvistik an'analing farq qiluvchi eng muhim jihatlaridan biridir. Ijtimoiy lingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida umumi tilshunoslikdan yaqindagina ajralib chiqdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sotsiolingvistika bo'yicha mashhur amerikalik olim G. Karri o'zining u yoki bu tilda so'zlovchilarning nutq va ijtimoiy holati o'zaro munosabatiga bag'ishlangan maqolasida sotsiolingvistikaning alohida tilshunoslikka oid fan sifatidagi zaruriyatini ko'rsatib berdi. Bu maqolada u birinchi marta "sotsiolingvistika" ("sociolinguistics") atamasini ishlatdi. Bu bilan u bu fanning "tug'ilgan yilini" ma'lum qildi – 1952 yil.

Biroq, aytish kerakki, ijtimoiy-lingvistik tadqiqotlar jadallik bilan 19-asrning oxiridayoq Fransiyada, 20-asrning boshida Rossiyada, keyinchalik Chexoslovakiyada olib borildi, o'tgan asrning o'rtalarida esa bu fan AQSHda, Angliyada, Germaniyada jadallik bilan rivojlandi.

NATIJALAR

I. Tilning va jamiyatning aloqalari manbaini, demak, lingvistika va sotsiologiyaning boshini Fransiyadan qidirish lozim bo'ladi, chunki aynan o'sha joyda til ijtimoiy hodisa deb ta'riflangan. Fransuz sotsiolog olimlari (E.Dyurkgeym, L.Levi-Bryul va G.Tard) XIX asrning oxiridayoq sotsiologiyani alohida fan sifatida ajratib ko'rsatdilar va uning doirasiga til dalillarini o'rganishni kiritdilar. Ta'kidlash joizki, Fransiyada tilning ijtimoiy tabiatiga bo'lgan qiziqish XVI-XVII asrlardayoq, tilning shakllanish jarayoni bilan bog'liq bir qator muammolar paydo bo'lgan paytda yuzaga keldi, bu fransuz adabiy tilini normallashtirish va takomillashtirish muammosidir. Aynan mana shu vaqtida jamiyatning ijtimoiy tabaqlanish moyilligi boshlandi, shuning uchun olimlar – tilshunoslarning fransuz tilini reglamentga solish va rivojlantirish fikrlari bir bo'lib chiqdi. Adabiy tilni normallashtirish va takomillashtirish muammosini hal qilish maqsadida fransuz tilining dastlabki tasviriy grammatikalari yaratildi (Pillot 1550, Dubois 1531, H.Estienne 1565, De la Ramée 1572, A.Arno va K.Lanslo "Por-Royalning "Umumiy va ratsional grammatikasi, 1660"), hatto 1634 yilda fransuz tilini tasvirlash va normalashtirish uchun Fransuz Akademiyasi tuzildi [Akhrorova, 2023:187].

Fransuz tilshunosligidagi ijtimoiy yo'nalish ta'limot tarzida shunday qoidaga ega ediki, bunga ko'ra til ijtimoiy hodisalarga taalluqlidir va uning rivoji bevosita bu til mavjud bo'lgan jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq. Ma'lumki, odatda, bu sotsiolingvistik ilmiy maktabning rahbari, asli shveysariyalik fransuz tilshunosi Ferdinand de Sossyur hisoblanadi, uning shogirdi Antuan Meye va Marsel Koenlar esa bu yo'nalishning haqiqiy asoschilari hisoblanadi [Akhrorova, 2022:178].

F. de Sossyur sotsiologiyadagi hukmron bo'lgan tasavvurni yengib o'tib, har xil ko'rinishdagi ijtimoiy qonunlardan tilning muhim farqlarini ko'rsatadi va bu bilan til ijtimoiy qonunlarning o'ziga xos tipi degan tushunchaga yaqinlashadi.

Antuan Meye lingvistik o‘zgarishlarning asosida jamiyatning tarixi bilan bog‘liq tildagi ijtimoiy o‘zgarishlar yotadi, deb hisoblaydi, chunki til bu jamiyatning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisadir, bu hodisa undan foydalanadi va shu sababli u tilshunoslikni ijtimoiy fanlar qatoriga kiritishni taklif qiladi [Akhrorova, 2022:108].

M.Koen til hodisalarining ijtimoiy omillar bilan o‘zaro bog‘langanligini isbot qilishga harakat qildi. U “til munosabatning quroli bo‘lib, lingvistik vositalar bilan tasvirlanishi lozim, u g‘oyalarning va xohish bildirishning egasi bo‘lganligi sababli, kishining o‘ziga xos ruhiy xususiyatini va jamiyatda zamonning shu vaqtida sodir bo‘layotgan jarayonlarini e’tiborga olmasdan, unga faqat mexanizm tarzida qaramaslik kerak”, deb hisoblaydi.

MUHOKAMA

Shuningdek, Jyul Maruzo, Emil Benvenist va Andre Martine kabi fransuz olimlarining xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Ularning ishlari fransuz tilshunosligidagi sotsiolingvistik yo‘nalish asarlari orasida ayniqsa ajralib turardi.

Sotsiolingvistik maktab vakillarining ishlaridagi umumiy ilmiy g‘oyalar quyidagi qoidalardan iborat edi: 1) tilga yagona yaxlit tizim sifatida qarash; 2) til ijtimoiy mahsulot hisoblanadi; 3) til hodisalari va ijtimoiy omillar o‘rtasida aloqa o‘rnatish.

XULOSA

Prof. N.S.Chemodanovning quyidagi juda odilona fikrini keltirish o‘rinli deb hisoblaymiz, u yozadi: “Tilning ijtimoiy tabiatiga lingvistik qiziqish, eng avvalo, Fransiyada ancha alohida ko‘zga tashlandi. Tilshunoslikda fransuz sotsiologik maktabining xizmati ... shundan iborat ediki, tilni ijtimoiy o‘rganish aspekti fanga birinchi bo‘lib muhim va zarur manba sifatida kiritildi”[Chemodanov, 1975:6]

II. Rossiyada sotsiolingvistik tadqiqotlar XX asrning birinchi choragidayoq boshlangan edi. I.A.Boduen de Kurtene,Ye.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.V.Vinogradov, F.P.Filin, V.A.Avrarin, Yu.Yu.Dresheriyev, A.I.Domashnev, L.B.Nikolskiy, A.D.Shveyser, L.P.Krisin va boshqa mashhur olimlarga tegishli bo‘lgan bir qator g‘oyalarsiz Rossiyada hozirgi tilshunoslik mavjud bo‘lishi mumkin emas edi.

I.A.Boduen de Kurtene tilning va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi haqida gapirib, jumladan, shunday deb yozadi: “Til faqat kishilik jamiyatidagina mumkin bo‘lganligi bois, ruhiy jihatidan tashqari, biz unda har doim ijtimoiy jihatini ham qayd qilishimiz kerak. Tilshunoslikning asosi bo‘lib faqat individual psixologiya emas, balki sotsiologiya ham xizmat qilishi kerak”[Бодуэн де Куртенэ, 1963:72].

Eslatib o‘tamiz, 70-yillarda G‘arbiy Yevropada va Amerikada feministik harakat faollashdi. Ayollarning ijtimoiy faolligi oshgan sharoitlarda “til va jins” muammosini ishlab chiqish butunlay qonuniy ko‘rinar edi. Shu paytgacha bu masalani o‘rganishdagi

birinchilik imtiozi amerikalik mualliflar: R.Lakoff, B.Praysler, F.Smit [Smit,1973:49], D.Kameron, Dj.Kouts va boshqalarga tegishlidir. Fransuz mualliflari orasida quyidagilar ancha mashhurdir: L. Irigare, Ye. Koskas, J. Kristeva, M.YaAgello, V.Ebisher¹. Bunday tadqiqotlar rus tilshunosligida ham paydo bo‘la boshladi: S.M.Vul, T.I.Shevchenko, A.P.Martinyuk, Ye.A.Butova va boshqalar.

Yuqorida nomlari zikr qilingan mualliflarning ishlarida muammoga qarashdagi qandaydir o‘xhashlik haqida guvohlik beruvchi ma’lum parallelilik kuzatiladi. Bu o‘xhashlik eng avvalo nutq – jins tabaqlashuvi bilan o‘zaro bog‘liq ijtimoiy omillarning ahamiyatini ajratib ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Akhrorova Ruzikhon Usmanovna. “Yosh tushunchasi lingvistik talqini”. Innovative Development in Educational Activities, 2023. B.187-190.
2. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Naming of the “age” concept. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022/10/20. –P. 178-182.
3. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Essay writing terms. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2022/12/22. –P. 107-109.
4. Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. т. М.: 1963.
5. Лакофф Дж. Мысление в зеркале классификаторов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып П. М., 1988. С. 12-49.; Шмидт В. Замечание к термину «немецкий национальный язык». М.: 1973.
6. Chemodanov N.S. Социолингвистика / Общ. ред. и вступ. статья - Москва : Прогресс, 1975. - 485 с.
7. Шмидт В. Замечание к термину «немецкий национальный язык». М.: 1973.